© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

TARIXIY HAQIQAT VA MANGU XOTIRA: QATAG‘ON QURBONLARI HAYOTI, FAOLIYATI VA ULAR XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH

Nurullaeva Maftuna Shukur qizi
MTS 24/1 guruh talabasi

“Inson xotira bilan tirik,
qadr bilan ulug‘dir” -
9 may – Xotira va qadrlash kunining
bosh g‘oyasi va shiori
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23496296

Annotatsiya:
Ushbu maqolada XX asrning 20-50 yillar davomida amalga oshirilgan mustabid tuzum qatagon siyosatining mohiyati, uning millat genofondi va ziyolilari taqdiriga ko’rsatgan ta’siri. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga bag‘ishlangan o‘qlangan qatagon qurbonlarining hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilgari mahfiy bo’lgan arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Yangi O’zbekistonda ushbu jarayon ishtirokchilari nomini abadiylashtirish, “Qatag‘on qurbonlari davlat muzeyi” va uning hududiy bo’limlari yoshlar olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlarning yuksaltirilish o’rni va ahamiyati ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy haqiqat, qatag‘on qurbonlari, abadiy xotira, siyosiy qatag‘on, arxiv hujjatlari, Oliy sud, reabilitatsiya jarayoni, jadidchilik, milliy mustaqillik, xotirani abadiylashtirish.

Kirish: Xotira... U insonning pok qalbidagi buyuk hislardan biri bo‘lib, nodir yodgorliklar toshdan bo‘lganidek, ulug‘ insonlarning, buyuk bobokalonlarimizning qilgan ishlari, o‘zidan keyin qoldirgan meroslari ham misoli toshdek umrboqiy bo‘lib, insonlar qalbida mangu yashaydi. Xotira, abadiylik – muqaddasdir, deb bejiz aytilmagan.

Har bir xalqning o‘z tarixi, o‘z xotirasi va o‘z taqdiri bor. Tarix faqat o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar majmui emas. U bugungi avlodning o‘zligini anglashi, ertangi kunga qanday qarashi va qanday qadriyatlarga tayanishiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston tarixida shunday og‘ir davrlar borki, ularni o‘rganish nafaqat tarixchilar, balki har bir avlod vakili uchun muhimdir. Ana shunday fojiali sahifalardan biri – mustabid tuzum davrida yuz bergan siyosiy qatag‘onlardir.

Qatag‘on yillarida davlat va jamoat arboblari, olimlar, shoir va yozuvchilar, o‘qituvchilar, shifokorlar, ziyolilar, ma’rifatparvarlar va oddiy fuqarolar ham turli ayblovlar bilan ta’qib qilindi. Ko‘plab insonlar qamoqqa olindi, otildi, surgun qilindi, mol-mulki musodara etildi, oilalari parokanda qilindi. Bu fojia bir insonning emas, butun jamiyatning taqdiriga ta’sir qildi.

O‘zbekiston har tomonlama boy va ulkan imkoniyatlar mavjud bo‘lgan mamlakat hisoblanadi. Uning eng katta boyliklaridan biri, shubhasiz, ma’naviy merosi, ziyoli xalqi va yuqori salohiyatli yoshlaridir. Mamlakatimizda yoshlarni asrab-avaylash, ularning ongu shuurini dunyoviy va diniy bilimlar bilan bosqichma-bosqich boyitib borish ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi islohotlarning bosh bo‘g‘inini tashkil etadi.

Yurtimizda asosiy e'tibor yoshlarga qaratilishi, ta’lim va tarbiya sohasida izchil islohotlar amalga oshirilishi bejiz emas, albatta. Chunki yoshlar ishongan tog‘imiz, ertangi kunimiz. Kelajagimiz faqatgina ularga bog‘liq. Qaysiki yurtda, yoshlar tarbisiga e'tibor berilmasa, shu yerda ertangi kunga ishonch yo‘qoladi, kelajak mavhumlikka yuz tutadi. E'tiborsiz qolgan yoshlar ongu

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

shuurini boshqa g‘oyalar, mafkuralar egallab oladi. Bunday davlatning kelajagi yo‘q desak, aslo xato qilmagan bo‘lamiz .

Asosiy qisim: Prezident Shavkat Mirziyoev 2021 yil 31 avgust kuni «Shahidlar xotirasi» xiyobonidagi marosimda O‘zbekistonda mustabid tuzum davrida 100 mingdan ortiq vatandosh qatag‘onga uchraganini, ularning bir qismi «xalq dushmani» degan tuhmat bilan otib tashlangani, boshqalari surgun va azob-uqubatlarga duchor bo‘lganini ta’kidlagan. Prezidentimiz bu nutqida qatag‘on qilinganlar orasida yirik davlat arboblari, olimlar, adiblar, shifokorlar va o‘qituvchilar bo‘lganini qayd etgan. Ularning ko‘pchiligi jamiyatning eng salohiyatli vakillari edi.

Qatag‘on qurbonlari xotirasini o‘rganish — faqat o‘tmishni eslash emas. Bu tarixiy haqiqatni anglash, inson qadrini ulug‘lash va kelajak avlodni tarix saboqlaridan xulosa chiqarishga o‘rgatishdir. Aslida, Qatag‘on qurbonlari – millat tarixining fojiali, ammo unutilmas sahifasidir. Qatag‘on qurbonlari orasida millatning eng bilimli va ma’rifatli farzandlari bor edi. Ular xalqni ilmga, ma’rifatga, taraqqiyotga chaqirgan, milliy ong va o‘zlikni yuksaltirishga harakat qilgan insonlar edi. Ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlari faoliyati O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin tutadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy kabi millat ma’rifatparvarlari ilm-fan, ta’lim, adabiyot va milliy tafakkur rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Ularning har biri o‘z sohasida xalq uchun xizmat qildi. Ular maktablar ochish, yangi usulda ta’lim berish, matbuotni rivojlantirish, milliy adabiyotni yuksaltirish, jamiyatni ma’rifatli qilish kabi ezgu maqsadlarni ilgari surdilar. Biroq mustabid tuzum sharoitida milliy fikr, erkin tafakkur va ma’rifatga intilish ko‘p hollarda siyosiy xavf sifatida baholandi.

Natijada yurtimizning ko‘plab ziyoli farzandlari qatag‘onga uchradi. Qatag‘on faqat insonning hayotini emas, uning ortidan qolgan oilasini ham og‘ir sinovga soldi. Ko‘plab oilalar «xalq dushmanining oilasi» degan tamg‘a bilan yashashga majbur bo‘ldi. Bolalar otasidan, xotinlar eridan, ota-onalar farzandidan ayrildi. Qatag‘on qurbonlari tarixi – inson taqdiri, oila fojiasi va millat taqdirining o‘zaro bog‘liq tarixidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixga munosabatda tub o‘zgarishlar boshlandi. Ilgari nomi qoralangan, asarlari taqiqlangan yoki hayoti haqida xolis ma’lumot berish imkoni bo‘lmagan ko‘plab insonlarning nomi qayta tiklana boshladi. Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash ham ana shu tarixiy jarayonning muhim qadamlaridan biri bo‘ldi. 2001 yil 1 mayda «Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida»gi Prezident farmoni qabul qilingan. Shu asosda 31 avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida belgilandi. Bu sananing Mustaqillik bayrami arafasida belgilangani ham chuqur ma’noga ega. Zero, bugungi erkinlik va tinchlikning qadrini anglash uchun uni orzu qilgan va shu yo‘lda qurbon bo‘lgan ajdodlar tarixini bilish muhim.

2002 yil 31 avgust kuni «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasida «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi tantanali ravishda ochildi. Muzeyning tashkil etilishi tarixiy xotirani saqlashda muhim qadam bo‘ldi. Chunki muzeyda hujjatlar, fotosuratlar va boshqa tarixiy materiallar orqali o‘sha davr haqida avlodlarga ma’lumot berish imkoniyati yaratildi. Toshkent shahridagi «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi joylashgan hududning tarixi alohida ahamiyatga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur hudud XX asrning 20-yillaridan Ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar sobiq tuzum jazo organlarining qatlgohlaridan biri bo‘lgan.

Toshkentda otilgan qatag‘on qurbonlarining bir qismi shu hududdagi uchta qatlgohga dafn etilgan. Bugun esa o‘sha mudhish tarix bilan bog‘liq hudud xalq xotirasi va milliy ma’naviyat maskaniga aylangan. Bu yerdagi ramziy qabr, yodgorlik inshootlari va muzey insonni o‘tmish haqida o‘ylashga undaydi. Zero, xotira faqat o‘tganlarni eslash emas, balki tarixdan saboq olishdir. «Shahidlar xotirasi» majmuasiga tashrif buyuruvchilar uchun ham ma’naviy, ham tarixiy ahamiyatga ega. U bugungi avlodga tinchlik, erkinlik va inson qadrining qanchalik ulug‘ ne'mat ekanini

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

anglashga yordam beradi. Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish keyingi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi.

2020 yil 8 oktyabrda Prezidentning «Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoyishi qabul qilindi Unda qatag‘on qurbonlarini hududlar kesimida nomma-nom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, arxiv va muzey hujjatlarini o‘rganish, avlodlari va yaqinlarining xotiralarini yozib olish, tarixiy materiallar va fotosuratlarni yig‘ish kabi vazifalar belgilandi. Shuningdek, ko‘p jildlik «Qatag‘on qurbonlari» kitobini tayyorlash, ilmiy ekspedisiyalar tashkil etish va qurbonlar hayotini ilmiy tadqiq qilish nazarda tutilgan. Bu hujjatning muhim jihati shundaki, unda xotirani abadiylashtirish faqat yodgorlik o‘rnatish bilan cheklanmasligi, balki ilmiy izlanish, arxiv hujjatlarini o‘rganish va nomma-nom aniqlash asosida amalga oshirilishi belgilangan. Bu esa tarixga ilmiy va xolis yondashishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

2024 yil 31 avgustda «Shahidlar xotirasi» xiyobonidagi marosimda Prezident «Inson – aziz, xotira – muqaddas» degan g‘oyani ta’kidlab, so‘nggi yillarda siyosiy qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash bo‘yicha ishlar olib borilayotganini qayd etdi. O‘sha nutqda so‘nggi uch yil ichida 1200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonining nomi oqlangani aytildi. Prezident ajdodlar jasorati xalq uchun doimo ma’naviy kuch manbai bo‘lib qolishini ta’kidladi. Xotira – bu kelajak avlod oldidagi mas'uliyatdir.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, tarixning o‘zi eng katta maktab va tarbiya demakdir. Shunday ekan, «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi va «Shahidlar xotirasi» xiyoboni faqat o‘tmishni eslash joyi emas, balki yosh avlod uchun ochiq tarixiy-ma’rifiy maktab hamdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda esa, Qatag‘on qurbonlari – xalqimiz tarixining og‘riqli, ammo unutilmas sahifasidir. Ular orasida Vatan, millat, ilm-ma’rifat va xalq kelajagi uchun xizmat qilgan ko‘plab fidoyi insonlar bor edi. Ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish – tarix oldidagi burchimizdir. Ularning nomini tiklash esa – adolatni qaror toptirish yo‘lidagi muhim vazifa. Xotiralarni abadiylashtirish esa kelajak avlod oldidagi ma’naviy mas'uliyatdir. Xotira bizga tinchlik va erkinlikning qadrini anglatadi.

Bugun biz baxtli avlod, erkin fikrlash, bilim olish, orzu qilish va o‘z kelajagimizni qurish imkoniyatiga egamiz. Ana shu imkoniyatlarning qadrini bilish uchun kechagi tarixni unutmasligimiz kerak va shartdir. Qatag‘on qurbonlarini xotirlash – o‘tmishga qaytish emas, bu kelajakni asrash demakdir. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi bog‘ida aholining tarix bilan hamnafas bo‘lib, o‘tganlar xotirasini yod etishi, ularga hurmat bajo keltirishi, mazmunli dam olish, ommaviy madaniy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, adabiy kechalar o‘tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mazkur bog‘ Vatanga sadoqat, o‘z hayotini tinchlik va ozodlik uchun fido qilgan insonlarning o‘lmas jasorati va yorqin xotirasi oldidagi yuksak hurmat-ehtiromning amaliy namunasi bo‘lib qoladi.

Zero, insonning umri o‘tishi mumkin, ammo uning ezgu nomi, ilmi va Vatan uchun qilgan xizmati avlodlar xotirasida yashaydi. Tarixiy haqiqat tiklanib, xotira barhayot bo‘lgan sari millatning ma’naviy xotirasi ham mustahkamlanib boradi.

Sukunatga cho‘madi bugun bog‘lar, Xotirangizni yod etar yuraklar,
Bir zamonlar nohaq ketgan insonlar, Sizga ta’zim aylar, bugun avlodlar!!!

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Alimova, D. (tahr.) "Repressiyalar va O‘zbek Jamiyati". Toshkent: Shark, 2001.
2. Khalid, Adeeb. "Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR". Cornell University Press, 2015. (Ingliz tilida)

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

3. Martin, Terry. "The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923-1939". Cornell University Press, 2001. (Ingliz tilida)
4. Saidov, A. "O‘zbekiston ziyolilari: Taqdiri va Ijodi". Toshkent: Ma’naviyat, 1994.
5. Qosimov, B. "Milliy Istiglol G‘oyasi va Repressiyalar". Toshkent: O‘zbekiston, 2000.